

MAFKURAVIY TARBIYA – SHAXS BEFARQLIGINI BARTARAF ETISH OMILI

Kenjayev Ulug‘bek Muratovich

Navoiy davlat pedagogika institute erkin izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mafkurada asrlar mobaynida shakllangan dunyoqarash va tushunchalar, turmush tarzi va an‘analar, millatning shakllanish jarayonlari, bosqichlari, xususan, evolyutsiyasi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, ayni ana shu rivojlanish bosqichlari inson tafakkuri dinamikasini o‘zida mujassam etishi tahlil qilingan. Bu ikki unsur jamiyat yangilanish jarayonida o‘zaro bog‘liq, uygun holda vujudga kelishi, Aks holda mafkura zamindan uzilgan, hayot haqiqatini o‘zida ifoda etolmagan «muallaq» g‘oya sifatida qolishi ta’riflab berilgan.

Kalit so‘zlar: mafkura, fikr, jamiyat, tartib, yaxlit, inson, ong, tafakkur, erk, omil, tizim, destruktiv, sharoit, yangilik, siyosiy, ma’naviy, qudrat, zamon, makon.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о мировоззрении и понятиях, образе жизни и традициях, формировавшихся в идеологии на протяжении веков, процессах и этапах формирования нации, в частности, ее эволюции, и анализируется, что эти этапы развития воплощают в себе динамику человеческого мышления. Описывается, что эти два элемента взаимосвязаны в процессе обновления общества, что они возникают в бытии соответствующим образом, иначе идеология остается «подвешенной» идеей, оторванной от земли, неспособной выразить реальность жизни.

Ключевые слова: идеология, мысль, общество, порядок, целое, человек, разум, мышление, воля, фактор, система, деструктивное, состояние, новаторство, политическое, духовное, власть, время, пространство.

ABSTRACT

This article talks about the worldview and concepts, lifestyle and traditions that have been formed in ideology over the centuries, the processes and stages of the formation of a nation, in particular, its evolution, and it is analyzed that these stages of development embody the dynamics of human thinking. It is described that these two elements are interconnected in the process of updating society, that they arise in being

in an appropriate way, otherwise the ideology remains a “suspended” idea, cut off from the ground, unable to express the reality of life.

Key words: ideology, thought, society, order, whole, man, mind, thinking, will, factor, system, destructive, state, innovation, political, spiritual, power, time, space.

Mafkura haqida turli davrlarda turli fikrlar o‘rtaga tashlangan. Uning safarbarlik, yo‘naltiruvchilik, da‘vatkorlik jihatlari insoniyat tarixida har xil shakllarda ko‘zga tashlanadi. Har qanday mafkuraning safarbarlik kuchi, ta‘sirchanligi, insonparvarligi va hayotiyliги bevosita makon va zamon, olam va odam munosabatlarini qay darajada o‘ziga mujassam etganligi, ma‘lum bir makonda asrlar mobaynida shakllangan turmush tarzi, an‘analar, urf- odatlar, aqidalar asosida dunyoga kelgan ma‘naviy-axloqiy mezon va ruhiy kechinmalar inobatga olinganligi bilan bog‘liq. Milliy uyg‘onish hodisasi yuz berayotgan, millat o‘zligini anglay boshlagan bir davrda xuddi ana shu ijobiy hodisalarni vujudga keltirgan islohotlar mohiyati, mazmuni xususida o‘ylamasdan ilojimiz yo‘q. Holbuki, busiz bugungi milliy yuksalish va milliy taraqqiyot mohiyatini anglash mumkin emas.

Mafkurada asrlar mobaynida shakllangan dunyoqarash va tushunchalar, turmush tarzi va an‘analar, millatning shakllanish jarayonlari, bosqichlari, xususan, evolyutsiyasi inobatga olinmog‘i zarur. Ayni ana shu rivojlanish bosqichlari inson tafakkuri dinamikasini o‘zida mujassam etadi. Bu ikki unsur jamiyat yangilanish jarayonida o‘zaro bog‘liq, uygun holda vujudga keldi. Aks holda mafkura zamindan uzilgan, hayot haqiqatini o‘zida ifoda etolmagan «muallaq» g‘oya sifatida qolaveradi.

Islohotlarning muvaffaqiyatli borishi va uzluksiz samarasi bevosita milliy g‘oya va milliy tafakkurning nechog‘lik shakllanganligi bilan bog‘liq. Yaratuvchilik va bunyodkorlikning, milliy taraqqiyotning asosi faqat milliy yuksalish ekanligini Prezidentimiz takror va takror uqtiradi. Millatni uyg‘otish esa milliy ong va milliy mafkura orqaligina amalga oshiriladi. Hayot yangilanayotgan, ietmoiy davlat va insonparvar jamiyat qurilayotgan bir paytda milliy manfaatlarga xizmat qiladigan va milliy taraqqiyotga katta turtki beradigan milliy g‘oyaning o‘ziga xos xarakterli jihatlari bor. Bu quyidagilardan iborat:

insonning hayotda tutgan o‘rni va rolini belgilashi;

asrlar mobaynida shakllangan dunyoqarashlar, milliy an‘analar asosida ulug‘ ajdodlarimizning buyuk merosi, g‘oyalari asosida yangi, zamonaviy, ilg‘or g‘oyani vujudga keltirish;

inson faoliyati va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishi;

jamiyat hayotini tashkil etishga, aholiga ta‘sir o‘tkazishga va uni safarbarlikka da‘vat etishi;

insoniyat taraqqiyoti tarixiy tajribalari bilan milliy yuksalish manfaatlarini uyg'unlashtiradigan omilga aylanmog'i kerak.

Mafkura jamiyat taraqqiyotini to'laligicha qamrab olgan uzluksiz, tadrijiy, o'zini o'zi to'ldirib boradigan, doimiy harakatdagi tizimga aylanishi darkor. Jamiyat yangilanayotgan, ongimiz va tafakkurimiz o'zgarayotgan bir paytda milliy taraqqiyot omili bo'lib xizmat qilish uchun eski mafkuraviy andozalardan voz kechishimiz, yangi ijtimoiy jarayonlarning butun mohiyatini ifodalab beradigan yangi mafkurani vujudga keltirishimiz kerak. U butunlay yangi davrning, uyg'onayotgan ruhiyat, uyg'onayotgan inson hissiyoti va jonlanayotgan yangicha tafakkurning mahsuli sifatida dunyoga kelmog'i lozim. Milliy g'oya ana shunday oliy qadriyatga aylanayotgan hodisadir. U yangicha tarixiy sharoitda yangi davr ruhini o'zida ifoda etgan g'oyaviy kuch sifatida dunyoga kelmoqda. Faqat ana shu g'oyagina olam haqidagi tushunchalarimiz, odam va olam o'rtasidagi munosabatlar, shaxs ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib shakllanmoqda.

Davrlar o'taveradi, zamonlar o'zgaraveradi. Biroq xalk dunyoqarashi, millatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, mohiyat va mazmuni avloddan-avlodga ko'chib, yangi mo'ljallar kasb etgan holda davom etaveradi. Milliy davlat masalalari jamiyat maqsadlariga, jamiyat belgilagan mo'ljallar oddiy insonlar orzu-o'ylariga aylangan holdagina ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ortga qaytmas xususiyat kasb etadi. Bu tendensiya esa jamiyat a'zolarining barchasini o'z oyog'ida o'zi mustahkam turishiga, fikrlab yashashga, ongli idrok, tafakkur asosida hayot qurishga da'vat etadi. Ayni paytda, milliy g'oya va mafkura davlat, jamiyat va shaxs uchun hayotbaxsh kuch manbaiga, uzluksiz va poyonsiz ta'sir imkoniyatlariga ega bo'ladi. Natijada har bir fuqaroning umumiy maqsadlar va manfaatlar yo'lida birlashib yashashiga, birlashib kurashishiga imkon yaratiladi. Ana shunda boshqa har qanday begona g'oyalar yo'li to'siladi. Odamlar soxta jaholat va g'animlik yoyuvchi mafkuraviy tazyiqlar va turli johiliy da'vatlarga ishonmay qo'yadilar.

Turli g'oyaviy xurujlar avj olayotgan va bizning eng muqaddas g'oyalarimizga va maqsadlarimizga tahdid solayotgan bir paytda fojialar sodir bo'lmasidan ilgariroq uning oldini olishning eng to'g'ri va yagona yo'li ham begona va soxta g'oyalarga qarshi keng ijtimoiy makonda g'oyaviy immunitetni kuchaytirish va mafkuraviy tarbiyani samrali olib borishga bog'liqdir.

Qariyb uch ming yillik taraqqiyotimizda ota-bobolarimizdan qolgan buyuk merosni anglay boshlagan bir paytimizda uning barchasini barbod qiladigan tahlkali g'oyalar qurshab olmoqda. Ana shunday g'ayriinsoniy g'oyalarga qarshi turadigan kudratli, iymonimiz, milliy g'ururimiz, insoniy sha'nimiz bilan bog'liq bo'lgan milliy g'oyaga umumjamiyat ehtiyoji kuchayib bordi.

Xalqimiz bugungi hayot, ertangi kunga katta ishonch bilan qaramoqda. Bu ishonchning negizida mujassam bo'lgan kuch-bu millatdoshlarimiz ongu tafakkurida ro'y berayotgan tub milliy-mafkuraviy, milliy-g'oyaviy o'zgarishlardir. Hayotning o'zi yoshlar tarbiyasiga, farzandlar hayotiga ustuvor vazifa sifatida qarashni talab qilmoqda. Tarixdan ma'lumki, eng katta xavf ichimizdan chiqishi mumkin. Chunki mamlakatimizdagi tinch-osuda hayotni, islohotlarni, amalga oshirilayotgan bemisl bunyodkorlik ishlarni ko'rolmayotganlar avvalo yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdirish, ongini zaharlash bilan shug'ullanadi. Bu keskin jarayonlar har birimizdan har bir ishda, har bir qadamda g'oyat mafkuraviy sezgirlikni, g'oyaviy hushyorlikni, har qanday yangilikka teran ko'z, chuqur mulohaza bilan qarashni talab etadi. Bu borada ta'lim-tarbiya, o'quv muassasalari, ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli benihoya katta ekanligini hamisha ta'kidlash o'rinlidir.

Hozirgi davrga xos g'oyaviy kurash turli usul va ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Lekin har qanday tashviqot va targ'ibot ta'sirchanligi oxir-oqibatda shaxsning ma'naviy yetukligi, g'oyaviy jihatda shakllangani uzviy bog'liqdir. Shaxsning yot g'oyalarga qarshi tura olish imkoniyatini insonning ma'naviy yetukligi bilan bir qatorga qo'yish mumkin. O'z navbatida bunday yetuklik esa komil shaxs belgisidir. Shu bois ma'naviy yetuklikni ta'minlovchi omillar shaxsning yot g'oyalarga qarshi tura olish imkoniyatini ham belgilaydi. Umuman olganda, ma'naviy jihatdan kamol topgan shaxsning shakllanishini ta'minlovchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-siyosiy omillar. Bu omillarning xususiyati jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan belgilanadi. Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangilanish davri madaniy qadriyatlarga ta'sir etmasdan qolmaydi.

2. Ijtimoiy-psixologik omillar. Inson bevosita muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar, shaxslararo munosabatlar, shaxs yashayotgan oilaviy muhit, shaxsning rasmiy (tashkilot, muassasa) hamda norasmiy (do'stlar, yaqinlari) tarzda ijro etadigan rollari, oiladagi o'z mavqeidan qoniqishi, shaxs yashaydigan oilaning boshqa oilalar, guruh va jamoalar bilan aloqasi kabilar ushbu guruh omillarini tashkil etadi.

3. Psixologik omillar. Shaxs sifatida iqtisodiy, shaxslararo, oilaviy va shu kabi muammolarni mustaqil tarzda hal eta olish, o'z-o'zini anglash va nazorat etishning rivojlanganligi, zo'riqishlarga chidamlilik, o'zgaruvchan sharoitga tez moslasha olish va muammoli vaziyatlarda tez yechim topa olish qobiliyati, ichki nizo va ziddiyatlarga moyillikning sustligi, motivatsiya va ehtiyojlar tizimining shakllanganligi kabi ko'rsatkichlar inson ma'naviy yetukligi shakllanishini ta'minlovchi psixologik omillardir.

Ijtimoiylashuv jarayoniga aynan shunday qarash, ya'ni insonni faollik manbai sifatida tushunish komil shaxsni shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Sharqda tarbiya jarayonida insonning guruhga, jamoaga yoʻnalganligi yetakchi oʻrin tutsa, gʻarb jamiyatida shaxs individualligi ustuvordir.

Har bir inson oʻz taraqqiyot yoʻliga, hayot yoʻnalishiga ega. Yoshlarda maʼnaviy qadriyatlar va eʼtiqodning shakllanishi borasida taʼkidlash mumkinki, shaxs xulqidagi ogʻishlar, maʼnaviy parokandalik belgilari, avvalambor, oila sharoitidagi nuqsonlar bilan belgilanadi. Qolaversa, oilaning asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Har qanday gʻoyaviy tarbiyaning kuchi uning anglanganligidadir. Agar inson oʻz gʻoyasining asl mohiyatini tushunib yetsa, uni mantiqan isbotlay olsa va har qanday qarshi savolga asosli javob topa bilsa, bunday shaxs oʻz eʼtiqodini himoya qila oladi va yot gʻoyalar taʼsiriga berilmaydi.

Yoshlarning yot gʻoyalarga qarshi tura olishi haqida gapirar ekanmiz, avvalambor ularning maʼnaviy yetuklik, eʼtiqodi darajasini bilish juda muhim. Shu munosabat bilan, maʼnaviy yetuklik koʻrsatkichlarini belgilash va ularning rivojlanganlik darajasini aniqlash zarurati tugʻiladi. Maxsus tadqiqotlar asosida shaxs maʼnaviy bilimlarining quyidagi jihati maʼnaviy yetuklik koʻrsatkichlari sifatida taklif etiladi.

1. Shaxs maʼnaviy bilimining toʻlaligi — oʻz yoshi, mavqei va bugungi kun talabi doirasida maʼnaviy va axloqiy tushunchalarga ega boʻlish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish va mustaqil tarzda talqin eta olish.

2. Maʼnaviy bilim va qarashlarning mantiqiy asoslangani — kundalik hayotdagi xulq shakllari, shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin boʻlgan qaltis harakatlar va mavjud tahdidga oid masalalarni oqilona, maʼlum guruhlariga ajratgan holda tahlil qila olish.

3. Mavjud maʼnaviy bilim va shakllangan xislatlarning shaxs uchun ahamiyatliligi. Vaziyat va mavjud sharoit talabiga koʻra Vatan manfaatiga mos keluvchi qarashlarni yoqlab chiqish va ularni ustuvor qoʻyish.

4. Shaxsdagi mavjud maʼnaviy bilim va qarashlarning mustahkamligi. Bu jihatning namunadagi koʻrsatkichi boʻlib shaxs maʼnaviy xislatining eʼtiqod darajasiga yuksalganligini taʼkidlash mumkin.

5. Maʼnaviy bilimlarning amaliyligi. Shaxsning oʻz axloqiy va maʼnaviy jihatlarini nafaqat ogʻzaki ravishda, balki xulqida ham namoyon etishi.

Hozirgi eng muhim, eng dolvzar vazifa-jamiyatimiz aʼzolarini avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning kalbida milliy gʻoya, milliy mafkura oʻz vataniga mexr-sadokat tuygʻusini uygʻotish oʻzligini anglash milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Chunki, faqatgina chinakam maʼrifatli shaxs inson kadrini, millat qadriyatlarini, bir suz bilan aytganda, oʻzligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon

hamjamiyatida o‘ziga munosib, obruli o‘rin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurashishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018. – 352 б.
2. Абилов Ў. Миллий ғоя: маънавий омиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 220 б.
3. Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омиллари / масъул муҳаррир Қ. Куранбоев; Республика маънавият тарғибот маркази. – Тошкент: “Маънавият”, 2015. – 32 б.
4. Жўраев Н. Тамаддунга даъват тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 264 б.
5. Назаров Қ., Эргашев И. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2007. – 433 б.
6. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя – тараққиёт стратегияси. Монография. – Тошкент: “Фан”, 2017. – 424 б.
7. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Тошкент: “Маънавият”, 2019. – 920 б.